

**2025-yil uchun rasmiy statistika sohasidagi davlat dasturining
yanvar–sentabr oylarida bajarilishi to‘g‘risida
MA’LUMOT**

**I. Rasmiy statistika sohasidagi davlat dasturi ijrosi, statistika uslubiyati
va amaliyotini takomillashtirib borish tadbirlari**

*Rasmiy statistika sohasidagi davlat dasturi (keyingi o‘rinlarda - Dastur)
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-fevraldagi
“2025- yil uchun Statistika dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” 100-son qarori bilan
tasdiqlangan.*

Dasturga muvofiq 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida jami **2404 ta** statistika ishlari belgilangan muddatlarda va to‘liq hajmda bajarildi, shundan **1262 tasi** Milliy statistika qo‘mitasi va uning organlari tomonidan, **681 tasi** rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan va **461 tasi** boshqa vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan bajarildi.

Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan, iqtisodiyot sohalari hamda tarmoqlari rivojlanishi maqsadli kompleks dasturlari monitoringi uchun doimiy ravishda miqdoriy ko‘rsatkichlar shakllantirib borildi, hududlar hamda iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi holatini kompleks tavsiflovchi tahliliy-statistika ma’lumotlari har oyda Hukumatga taqdim etib borildi.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-dekabr, 2025-yilning yanvar-mart hamda yanvar-iyun davrlari uchun O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dastlabki yakunlari bo‘yicha statistika ma’lumotlari tayyorlanib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank hamda boshqa vazirlik va idoralarga taqdim etildi.

2024-yilning yanvar-dekabr, 2025-yilning yanvar-mart hamda yanvar-iyun oylari yakunlari bo‘yicha “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati” axborotnomasi (doklad) o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarga yuborildi.

Shu bilan birga, 2025-yil yanvar, yanvar-fevral, yanvar-aprel, yanvar-may, yanvar-iyul, yanvar-avgust davrlari uchun “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati” statistik risolasi 2 tilda (o‘zbek, rus) chop etilib, belgilangan ro‘yxat asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarga taqdim etildi.

Statistika dasturiga muvofiq bajarilgan ishlar natijalariga ko‘ra shakllantirilgan ochiq statistika ma’lumotlari, axborotnomalar, to‘plamlar, press-relizlar ko‘rinishida

hamda ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam ravishda milliy va xorijiy foydalanuvchilar e'tiboriga yetkazib berildi.

Xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi qo'mitaning rasmiy Telegram kanalida **1218 ta**, Facebook sahifasida **1039 ta** va Instagram sahifasida **663 ta** yangiliklar e'lon qilindi.

Shuningdek, **20 ta** infografika roliklari hamda statistika faoliyatiga oid **137 ta** lavhalar "O'zbekiston 24" telekanalida doimiy tarzda efirga uzatilib kelinmoqda.

Milliy statistika qo'mitasi rasmiy veb-saytining "Ochiq ma'lumotlar" bo'limida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, milliy hisoblar, narx va indekslar, sanoat, qishloq xo'jaligi, aholi turmush darajasi va boshqa qator statistika yo'nalishlari bo'yicha **1145 ta** statistika ma'lumotlari to'plamlari e'lon qilindi.

"Xalq so'zi", "Narodnoye slovo", "Yangi O'zbekiston", "Pravda Vostoka", "Birja" va boshqa nashrlarda statistika ko'rsatkichlari aks etgan **44 ta** materiallar chop etildi.

Xalqaro statistika amaliyoti tavsiyalarini inobatga olgan holda, statistika sohasining turli yo'nalishlari bo'yicha 2025- yil yanvar-sentyabr oylarida **23 ta** yangi uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqildi.

Statistika ma'lumotlari sifatini oshirish borasida hisobot topshiruvchi subyektlar o'rtasida profilaktika tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2025- yil yanvar-sentabr oylarida respublikaning barcha hududlarida **78,3 mingta** respondentlarga tushuntirishlar, **58,3 mingta** yangi tashkil etilgan respondentlar profilaktika tadbirlari davomida qamrab olindi, **104,6 mingdan** ortiq bukletlar tarqatildi va **2147 marta** ommaviy axborot vositalarida chiqishlar tashkil etildi.

Ochiq ma'lumotlar portali faoliyatini takomillashtirish, ma'lumotlar sifatini oshirish va ko'lamini kengaytirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida, portalda e'lon qilinayotgan ma'lumotlar to'plamlari soni **7 mingdan** oshdi.

Jumladan, Milliy statistika qo'mitasi tomonidan portalda e'lon qilinayotgan statistika ma'lumotlari to'plamlari soni **2198 tani** tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tizim xodimlarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish dasturiga asosan 2025- yil yanvar-sentabr oylarida **7 ta** o'quv kurslarida **402 nafar** xodimlarning malakasi oshirildi.

Institut tomonidan 2025- yilda amalga oshiriladigan statistik tadqiqotlar dasturiga muvofiq yanvar-iyul xolatiga 2 ta tadqiqot ishi, ya'ni, "Ishchi kuchi kuzatuvi va ma'muriy ma'lumotlar asosida mehnat statistikasini takomillashtirish" va "O'zbekiston Respublikasida innovatsion faol korxonalarning faoliyatini statistik

usullarda baholash bo'yicha uslubiy tavsiyalar" mavzulari tayyorlangan. Demografiya, mehnat va gender statistikasi hamda Ijtimoiy soha statistikasi boshqarmalaridan amaliyotga tadbiiq etilganligi bo'yicha ijobiiy xulosalar olingan.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqot natijalari "O'zbekiston statistik axborotnomasi" ilmiy-elektron jurnalining 2025-yil 2-sonida ilmiy maqolalar sifatida tayyorlandi va chop etildi.

Vazirlar Mahkamasining 2025- yil 24-fevraldagi 106-son qarori ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha nazorat rejasiga muvofiq, 2025-yil 25-iyulda Milliy statistika qo'mitasining buyurtmasiga asosan institutda joriy yilda 5ta tadqiqot loyihalari va 2ta ISO xalqaro standartlarni joriy qilish belgilangan.

"ISO 3534-1-2006 Statistika uslubiyatlar. Lug'at va shartli belgilar - 1-qism: Umumiy statistik atamalar va ehtimollar nazariyasida qo'llaniladigan atamalar" bo'yicha tadqiqot ishining birinchi oraliq hisoboti Milliy statistika qo'mitasining Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasiga yuborildi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, mazkur qaror doirasida "Ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning ma'lumotlar bazalarini Milliy statistika qo'mitasining axborot tizimiga integratsiya qilish va ma'lumotlarni taqdim etish reja-jadvali"da belgilangan ishlarni bajarilishi yuzasidan yanvar-sentabr oylarida tegishli vazirlik va idoralar bilan integratsiya jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Jumladan:

O'zbekiston mahallalari uyushmasining "Raqamli mahalla" platformasi hamda Milliy statistika qo'mitasining SIAT axborot tizimi o'rtasida ikki tomonlama texnologik yo'riqnoma tasdiqlanib, ma'lumotlar almashinuvi amalga oshirildi;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining "E-mehmon" axborot tizimi Milliy statistika qo'mitasining SIAT statistika integrallashgan axborot tizimi bilan integratsiya qilindi va elektron axborot almashinuvi yo'lga qo'yildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi PF-27-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Milliy statistika qo'mitasi hamda vazirlik va idoralarning axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilish bo'yicha yo'l xaritasi"ga muvofiq, joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Milliy statistika qo'mitasi bilan bir qator vazirlik va idoralarning axborot tizimlari o'rtasida integratsiya jarayonlari amalga oshirildi.

Jumladan:

O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining "Respublikada ishlab chiqarilgan va import qilingan mahsulotlarga berilgan sertifikatlar

to'g'risida" ma'lumotlar bazasi bilan Milliy statistika qo'mitasining SIAT statistika integrallashgan axborot tizimi hamda O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining "Raqamli hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashgan platformasi/raqamli ma'lumotlar platformasi (IIP/RMP) orqali uch yoqlama texnologik yo'riqnoma tasdiqlanib, integratsiya jarayoni yo'lga qo'yildi;

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining "Aholiga ijaraga ajratilgan yerlar" hamda "Aholiga ajratilgan yerlarda ekiladigan mahsulotlarning hosildorlik ko'rsatkichlari" ma'lumotlari bazasi bilan Milliy statistika qo'mitasining SIAT statistika integrallashgan axborot tizimi o'rtasida integratsiya qilindi va elektron ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yildi;

O'simliklar karantini va ximoyasi agentligi ma'lumotlar bazasi Milliy statistika qo'mitasining bozor narxi yig'ma ma'lumotlar bazasi hamda "Raqamli hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashgan platformasi/raqamli ma'lumotlar platformasi (IIP/RMP) orqali uch tomonlama ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yildi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligining davlat xaridlari maxsus axborot portali Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilindi va elektron ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yildi;

Raqamli texnologiyalar vazirligining "Raqamli hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashgan platformasi/raqamli ma'lumotlar platformasi (IIP/RMP) hamda Milliy statistika qo'mitasi SIAT statistika integrallashgan axborot tizimining iste'mol narxlari indeksi (inflyatsiya) ma'lumotlari bazasi bilan integratsiya qilindi va elektron ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yildi;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining "Investitsion loyihalarni boshqarish platformasi" hamda Milliy statistika qo'mitasining SIAT axborot tizimi o'rtasida elektron ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yildi. Mazkur integratsiya orqali Investitsiya loyixalari to'g'risida ma'lumotlar olinishi yo'lga qo'yildi;

Maktabgacha va maktab vazirligining axborot tizimi hamda Milliy statistika qo'mitasining SIAT axborot tizimi o'rtasida elektron ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yildi. Mazkur integratsiya orqali Maktabgacha va maktab vazirligi tashkilotlaridagi ta'lim soxasiga oid ma'lumotlar olinishi yo'lga qo'yildi;

Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlashtirish qo'mitasining "VIS-CHINOR" axborot tizimi hamda Milliy statistika qo'mitasining SIAT axborot tizimi o'rtasida elektron ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yildi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-iyuldagi "Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'liklarining sifatini baholash tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-109-son Farmoni 2-ilova 3.1-bandiga ko'ra,

Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining “Uzagroin.uz” axborot tizimi va Milliy statistika qo‘mitasining axborot tizimlari o‘rtasida elektron ma’lumotlar almashinuvi yo‘lga qo‘yildi. Mazkur integratsiya orqali Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining urug‘liklarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish kabi ko‘rsatkichlari ma’lumotlari uzatilishi yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining “CROP AGRO” axborot tizimida shakllantiriladigan qishloq xo‘jaligi ekinlari to‘g‘risidagi xo‘jaliklar kesimidagi ma’lumotlarni Milliy statistika qo‘mitasining SIAT axborot tizimi o‘rtasida elektron ma’lumotlar almashinuvi yo‘lga qo‘yildi.

III. Xalqaro hamkorlik va axborot almashinuvi

Xalqaro tashkilotlar bilan sohani rivojlantirish, ilg‘or tajribalar va zamonaviy uslubiy tavsiyalarni amaliyotga joriy etish yuzasidan yaqindan hamkorlik hamda mamlakat ko‘rsatkichlarini xalqaro axborot bazalarida aks ettirish yuzasidan axborot almashinuvi aloqalari yo‘lga qo‘yildi.

2025-yilning yanvar-sentyabr oylarida xalqaro tashkilotlarning **38 ta** savolnomalari, jumladan, BMT Statistika bo‘limining **9 ta**, YUNESKO statistika institutining **9 ta**, MDH Davlatlararo Statistika Qo‘mitasining **2 ta**, Xalqaro avtomobil yo‘llari federatsiyasining **1 ta** va boshqa xalqaro tashkilotlarning **17 ta** savolnomalari to‘ldirilib, taqdim etildi.

Bundan tashqari, **4 ta** xalqaro ma’lumotlar bazalaridagi, xususan, XVJning kengaytirilgan Ma’lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi doirasida, MDH va “COMTRADE” ma’lumotlar bazalarida O‘zbekistonning statistika ko‘rsatkichlari o‘z vaqtida yangilandi.

Jumladan, tovarlar savdosi bo‘yicha BMTning “COMTRADE” axborot bazasida **4492 ta** tovar turlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi ma’lumotlarini har oyda yangilab borilishi ta’minlandi.

XVJning kengaytirilgan Ma’lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi (e-GDDS) doirasida **275 ta** indikator bo‘yicha ma’lumotlar muntazam yangilab borilmoqda.

Bundan tashqari, XVJning kengaytirilgan Ma’lumotlarni tarqatishning umumiy tizimidan (e-GDDS) Ma’lumotlarni tarqatishning maxsus standartiga (SDDS) o‘tish yuzasidan zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda.

IV. Mamlakat miqyosida amalga oshiriladigan yirik tadbirlar

Aholini ro‘yxatga olish tadbirlariga tayyorgarlik ko‘rish masalalarida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi PF-173-son “O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida” Farmoni ijrosiga muvofiq

respublikamizda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish ishlari davom etmoqda.

Aholini ro'yxatga olishga puxta tayyorgarlik ko'rish yuzasidan hududlarda muntazam targ'ibot-tashviqot ishlari o'tkazilmoqdi.

2025-yil yanvar-sentabr oylarida turli rasmiy veb-saytlarda **2548 tadan** ortiq maqola va tezislar joylashtirildi, televideniya **69 ta** ko'rsatuvlar, radioda **86 ta** eshittirishlar, gazeta va jurnallarda **176 ta** maqolalar chop etildi.

Shuningdek, oliy o'quv yurtlarida **143 ta** va maktablarda **1296 tadan** ortiq davra suhbatlari tashkil etildi.

Ushbu farmonga ko'ra aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri 2026-yilning 15-yanvaridan 28-fevraliga qadar o'tkazilishi belgilangan bo'lib, ro'yxatga olishni o'tkazish davomiyligi 45 kunni tashkil qiladi.

Mazkur Farmon ijrosi yuzasidan "O'zbekiston Respublikasida 2025-yilda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasi tayyorlandi va Vazirlar Mahkamasiga yuborildi.

Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasida quyidagilarni tasdiqlash nazarda tutilmoqda:

O'zbekiston Respublikasida 2025-yilda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom;

O'zbekiston Respublikasida 2025-yilda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish, natijalarini tahlil qilish va e'lon qilish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi;

O'zbekiston Respublikasida 2025-yilda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish dasturi;

O'zbekiston Respublikasida 2025-yilda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish savolnoma shakllari ro'yxati;

2025-yilda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishni o'tkazishga ko'maklashish bo'yicha hududiy komissiyalarning namunaviy tarkibi va ularning asosiy vazifalari;

2025-yilda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali qo'llash va axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ishchi guruhi tarkibi va uning asosiy vazifalari.

Sinov tariqasida aholini ro'yxatga olish natijalari va xalqaro ekspertlarning (BMTning Aholishunoslik jamg'armasi (YUNFPA), Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) va Belarus Milliy statistika qo'mitasi) tavsiyalaridan kelib chiqib, aholiga yanada qulay bo'lishini ta'minlash maqsadida quyidagi 6 xil shakldagi ro'yxatga olish savolnomalari tayyorlandi va takomillashtirildi:

1-shakl "Turar joyning xususiyatlari va unda yashovchilar ro'yxati";

2-shakl "Shaxsga oid savolnoma";

3-shakl "O'zbekiston Respublikasiga vaqtincha kelgan chet el fuqarolari uchun savolnoma";

4-shakl "Aholining ayrim toifalariga nisbatan shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha savolnoma";

5-shakl “Uy xo‘jaligini qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanishi bo‘yicha savolnoma”;

6-shakl “Yuridik shaxslar uchun qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanishi bo‘yicha savolnoma”.

PF-173-son Farmonining Milliy statistika qo‘mitasi tizimida ijrosini ta‘minlash, hududlarda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishni samarali tashkil etish maqsadida 2025-yil 22-sentabrda Milliy statistika qo‘mitasining 87-son buyrug‘i imzolandi. Ushbu buyruq asosida qo‘mitada ro‘yxatga olish shtabi tuzildi va ishchi guruhlar tarkibi, ularning vazifalari tasdiqlandi.

Prezident farmoni ijrosini ta‘minlash va ro‘yxatga olishga puxta tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan “Ro‘yxatga olishni o‘tkazishning tashkiliy rejasini tuzish bo‘yicha Yo‘riqnoma”, hududiy statistika organlari, vaqtincha jalb qilingan ro‘yxatga olish xodimlarini o‘qitish bo‘yicha Dastur va mavzular bo‘yicha taqdimotlar, ro‘yxatga olish xodimlarining mehnat muxofazasi bo‘yicha Yo‘riqnoma, ro‘yxatga olish shtablarini tashkil etish talablari va boshqa tashkiliy jadvallar ishlab chiqildi.

Shuningdek, hududiy statistika organlari xodimlarini o‘qitish bo‘yicha 2025-yilning 24-26-sentabr va 2-4-oktabr kunlari Milliy statistika qo‘mitasida ro‘yxatga olishning mazmun-moxiyati, planshet qurilmalarida savolnomalarni to‘ldirish bo‘yicha seminarlar tashkil etildi.

Shuningdek, hozirda 2025-yil noyabr oyida o‘tkazilishi rejalashtirilgan aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishning axborot tizimini sinovdan o‘tkazish ishlariga uslubiy va tashkiliy tomondan tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Ro‘yxatga olishning axborot tizimining 3 xil ko‘rinishi, ya‘ni, internet, planshet va mobil versiyalari ishlab chiqildi.

Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish yo‘nalishida monitoringni yo‘lga qo‘yish masalalarida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 83-son qarori qabul qilingan.

Ushbu qarorning 1-ilovasi bilan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalari sifatida O‘zbekiston uchun dolzarb hisoblangan **16 ta** milliy maqsad va BRMning **126 ta** milliy vazifalar ro‘yxati tasdiqlangan.

*Ma‘lumot uchun: Global miqyosda **17 ta** maqsad **169 ta** vazifa va **232 ta** indikator tasdiqlangan.*

Shuningdek, mazkur qarorning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan, 2022–2026-yillarda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga samarali erishish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ta‘minlash maqsadida, Milliy statistika qo‘mitasi hamda Barqaror rivojlanish maqsadlarining milliy

indikatorlari bo'yicha idoralararo ishchi guruhi tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Statistika Komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari global indikatorlar tizimi asosida Milliy Barqaror rivojlanish maqsadlari indikatorlarini takomillashtirib bormoqda;

O'zbekiston uchun dolzarb hisoblangan **190 ta** indikatorlar tasdiqlangan, shundan, **152 tasi** global indikatorlar bilan to'liq mos keladi, **28 tasi** proksi indikatorlar va **10 tasi** milliy indikatorlar hisoblanadi;

Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha erishilgan natijalarni kuzatib borish va ushbu sohada mamlakatdagi mavjud vaziyat to'g'risida dolzarb ma'lumotlarni foydalanuvchilarga taqdim etish maqsadida, 2019- yilda O'zbekiston Respublikasida Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari ko'rsatkichlari bo'yicha veb-sayt ishlab chiqilgan;

vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda **143 ta** Milliy barqaror rivojlanish indikatorlari bo'yicha ma'lumotlar shakllantirilib veb-saytga joylashtirib borilmoqda;

Milliy statistika qo'mitasi tomonidan "O'zbekiston Respublikasida Milliy barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha yillik statistik to'plam" 2019- yildan boshlab har yili o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etilib vazirlik va idoralar hamda O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xalqaro tashkilotlarga taqdim etilmoqda, shuningdek, ushbu to'plamning elektron shakli (nsdg.stat.uz) veb saytga joylashtirib borilmoqda;

YUNISEF tashkiloti ko'magida 2021-2022- yillarda O'zbekiston Respublikasida onalar va bolalar turmush tarzini o'rganish bo'yicha Multiindikator klaster kuzatuv (MICS) o'tkazilgan. Natijada **160 dan** ziyod muhim sotsial ko'rsatkichlari bilan bir qatorda Barqaror rivojlanish maqsadlarining **29 ta** indikator ko'rsatkichlari shakllantirilgan;

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Osiyo va Tinch okeani iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi(ESCAP)ning SDG Tracker platformasida O'zbekiston Respublikasi sahifasi ochilib, barqaror rivojlanish maqsadlari indikator ko'rsatkichlari bilan to'ldirib borilmoqda;

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Statistika bo'limi veb sahifasida Barqaror rivojlanish maqsadlari bo'yicha ilg'or tajribalarga ega **90 ga** yaqin davlatlar qatorida O'zbekiston Respublikasi ham qayd etilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish yechimlari tarmog'i SDSN SDG Transformation Center va xalqaro ekspertlar tomonidan tayyorlanib 2025- yil iyun oyida e'lon qilingan **SDG index** hisobotiga ko'ra, O'zbekiston **167 ta** mamlakat orasida **73,1** indeks bilan **62-o'rinni egalladi** va ushbu reyting bo'yicha dunyoda eng tez rivojlanayotgan **5 ta** davlat qatorida qayd etildi.

Ma'lumot uchun: 2024- yilda O'zbekiston 69,2 indeks bilan 81-o'rinda qayd etilgan.

Joriy yil 24-26-sentabr kunlari Ozarbayjon Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan MDH Davlatlararo statistika qo'mitasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan III Xalqaro statistika forumi doirasida O'zbekiston Respublikasi

Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) doirasida bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi va yangilanish darajasi bo'yicha mintaqadagi yetakchi davlat sifatida e'tirof etildi.

YUNISEFning so'nggi tahliliga ko'ra, O'zbekistonda 2020-yildan keyingi davrda bolalarga oid BRM ko'rsatkichlarining 77 foizi kamida bitta yangilangan ma'lumotga ega. Bu ko'rsatkich MDHdagi o'rtacha 55 foiz va Yevropa — Markaziy Osiyo mintaqasidagi 53 foiz ko'rsatkichlardan ancha yuqori. Bu mamlakatimizda bolalarga oid ijtimoiy dasturlarni statistik ta'minlashda shaffoflik va ochiqlik yuqori darajada ekanini ko'rsatadi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari indikatorlari sifatini ta'minlashda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy statistika sifatini ta'minlashning asosiy tamoyillariga muvofiq amalga oshirib, xalqaro tavsiyalarga muvofiq takomillashtirib borilmoqda.